

TALABALARNING XORIJIY TILLARNI O’RGANISHINI RIVOJLANTIRISH

Sabirova Muxarramoy Nurbek Qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va Psixologiya ta’lim yo’nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarining talabalarining ingliz tilini xorijiy til sifatida mustaqil o’rganishida ingliz tiliga oid terminlarning psixolingvistik xususiyatlariga ustuvorlik berish hamda psixolingvistikaga oid bilimlarini rivojlantirishga, talabalarining ingliz tilini mustaqil o’rganishiga ko’maklashadi. Talabalarda ingliz tilini mustaqil o’rganishining rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglarni qo’llash asosida takomillashtirilgan;

Kalit so’zlar: psixolingvistik xususiyatlar, qobiliyatlar, mahorat, to’siqlar mustaqil o’rganish, ingliz tili, talabalar, terminlar, treninglar

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni o’rganish davr talabidir. Shu bois ham yurtimizda til o’rganishni rivojlantirish uchun juda katta e’tibor berilmoqda. Bakalavriatura bosqichida talabalarining ingliz tilini mustaqil o’rganishi bo’yicha topshiriqlarni bajarishi ingliz tilini yaxshiroq o’rganishi uchun imkoniyat yaratadi. Bunda quyidagicha ishlar amalga oshiriladi.

“O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash, ta’lim va o’qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, chet tillarni chuqurlashtirib o’qitish bo’yicha ishlarning ustuvor yo’nalishlari belgilab berildi”.

Talabalarining ingliz tilini mustaqil o’rganishida “so’z yoki termin bilan xayolan (aqlan) operatsiyalab, ta’lim oluvchi chet tilini amaliy egallashga ko’maklashadigan kommunikativ vazifalarning qo’yilgan doirasini hal qilishni boshlaydi”. Empirik bilimlar to’plangani sari inson psixologiyasida terminologik kompetensiyaning birinchi darajasi uchun sharoitlar yaratiladi, zero, informativ ahamiyatli terminlar, texnikaga oid matn ichida markerlar sanalib, ta’lim oluvchining axborotni adekvat idrok etishini ta’minlaydi va kasbiy yo’naltirilgan kompetensiyasi shakllanishi hamda rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydi.

Demak, talabalarining ingliz tilini mustaqil o’rganishida til kodining asosi sifatida “leksik-terminologik materialni bilishi ilmiy matnni o’qishda nutqiy strategiyalarni ishlab chiqishning hal qiluvchi omili hisoblanadi”. “Bu ilmiy matnning psixolingvistik yo’nalganligi bilan belgilanadi, bunda kognitiv ahamiyatlilik kommunikativ ahamiyatdan ustun bo’ladi”.

Ma’lumki, talabalarining ingliz tilini mustaqil o’rganishida so’zni egallash, jumladan, turli kontekstlarda leksik birliklarni idrok qilish va anglash, shuningdek, “ta’lim oluvchining lisoniy va nutqiy qobiliyatlari, jumladan, lingvokreativ tafakkuriga tayanadi”. Bundan tashqari, “terminologik so’zlar, lingvistik belgilar sifatida, axborotni to’plash va uzatish, bu bilan esa mutaxassislikka oid muloqot sohasida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda ishtirok etadi. Bularning hammasi til o’rgatish jarayonida nafaqat til, balki metatil, asosiysi ta’lim (muloqot) sub’yektining kognitiv tizimida olam haqidagi bilimlarni kengaytirishda diqqatni jamlash kerakligini anglatadi”.

Bundan tashqari, talabalarining ingliz tilini mustaqil o’rganishida o’rganilayotgan tilning ichki qonuniyatlarini egallash, uning faoliyat ko’rsatish mexanizmlari asosida egallashda talaba psixologikiyasi, diqqati yo’nalganligi, bilishi va o’z nutqining

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

rivojlantirish ,yo’naltirishda ularning psixolingvistik, ijtimoiy bilimlarni egallashga asosi bo’ladi.

“Amerikalik taniqli psixolog Robert A.Baronning (Baron, Robert A.) fikricha, mental faollik va boshqa mental jarayonlarni tezlashtiradi”. Leksik-terminologik kompetensiyani, kasbiy kompetensiya asosini, shakllantirishda terminlarning yasalishi hamda nutqda qo’llanishini ko’rgazmali illyustratsiyalash, keyin turli mashq va vaziyatlardan mohirona foydalanish hisobiga o’zlashtirishning mustahkamligini ta’minlash alohida muhim, bu mustahkamlik kabi onglilik prinsipi bilan ham bog’liq: ta’lim oluvchilar *tushungani* va *anglaganini* mustahkam eslab qolinadi.

Talabalar ingliz tilini mustaqil o’rganishida o’quv markazlar, muhit ularning bilimlarni samarali o’zlashtirishiga psixologik ijobiy ta’sirini ko’rsatadi. Til lingvistik qobiliyatlarining alohida komponentlari sifatida, chet tilini mustaqil o’rganish muvaffaqiyatli bo’lishida til qobiliyatlari tarkibidagi individual kognitiv komponent bog’liqlikda rivojlanadi.

Talabalarning xorijiy tillardan ingliz tilini mustaqil o’rganishda murakkab aqliy shakllanish bo’lgan “til qobiliyatlari” tushunchasini oydinlashtirishdan iborat. U ma’lum bir rivojlanish darajasiga etgan o’zaro bog’langan pertseptiv va aqliy jarayonlarni birlashtirgan barqaror dinamik tuzilma bilan tavsiflanadi. Talabalarning ingliz tilini chuqur o’rgangan holda yuqori ularning lingvistik qobiliyatlarini shakllantirishga kompleks yondashuv talab etiladi.

Talabalarda ingliz tili mustaqil o’rganishi terminosistemaviy va uning ingliz tilini o’rganishi jarayonida muhim rolini madaniy-psixologik va metodik aspektlarni hisobiga kompleks o’rganish zarur, madaniyatlar yoki semiotik ob’yektlar o’zaro ta’siri (hamkorligi) sifatida terminologik metodologik bazasini anglashni talab qiladi.

Demak, talabalarning ingliz tilini mustaqil o’rganishida til kodining asosi sifatida leksik-terminologik materialni bilishi ilmiy matnni o’qishda nutqiy strategiyalarni ishlab chiqishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Bu ilmiy matnning psixolingvistik yo’nalganligi bilan belgilanadi, bunda kognitiv ahamiyatlilik kommunikativ ahamiyatdan ustun bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. -O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70- modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
3. Ellis, M. Teaching Business English. Oxford: Oxford University Press, 2005. -198 p.
4. Frel M., Абдураимова Я., Чан А., Ибрагимова Г., Мирзоянова А. Get in Touch. Tashkent 2008.
5. Goyibnazarova Sh, S., and Muhammadiyeva. L. Xorijiy tillarni o’rganishda diqqatning o’rni va ahamiyati //universal journal of social sciences, philosophy and culture. – 2023. – T. 1. – №. 1. – С. 12-20.
6. Komilova X Pedagogik trening asoslari O‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2022.- 132-b.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - London., 2001
8. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching/ J. Harmer, Longman, 2002. 293 p.